IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

BADIIY TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI

Fazildinova Sevara Nematovna

Farg‘ona davlat universiteti, ingliz tili o‘qituvchisi

E-mile: sfazildinova84@mail.ru

Aloqa uchun: +998915410377

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozma tarjimaning asosiy turlaridan biri badiiy tarjima va tarjimashunoslik masalalari haqida so‘z yuritiladi. Tarjima so‘ziga va jarayoniga mahalliy va horijiy tarjimashunos olimlarning bergan ta’riflari va uning turli madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishdagi muhim roli haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar

Tarjima, manba tili, tarjima tili, asl nusxa, tarzabon, ag‘darmoq, o‘girmoq, madaniyat, tilmoch, tarjimon, tarjimashunoslik.

Badiiy tarjima haqida so‘z ochishdan oldin tarjimaning insoniyat faoliyatining eng qadimgi turlaridan biri ekanligini aytib o‘tish lozim. Insoniyat tarixida tillari turlicha bo‘lgan odamlar guruhlari paydo bo‘la boshladi. Shu bilan bir vaqtda ona tilidan boshqa tillarni biladigan va turli xil tillarda so‘zlashuvchilarga boshqa millat vakillari bilan muloqot qilishlariga yordam beradigan tarjimonlar ham paydo bo‘ldi. Insoniyat shakllandi. Yangi bilimlar, malaka va ko‘nikmalar va shu bilan birga ehtiyojlar ham vujudga keldi. Diniy va rasmiy matnlar ustida ishlaydigan tarjimonlarga ehtiyoj tug‘ildi. Shuni hisobga olib aytish mumkinki, tarjima qadimdan insonilarni bir-biri bilan muloqot qilishi, olgan bilimlarini kelajak avlodga yetkazib berish kabi ijtimoiy vazifani bajarib kelgan.

Tarjima tushunchasi keng qamrovlidir. Masalan, yozma tarjima nasr, nazm, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar, xujjatlar, ro‘znomalar va jurnallardagi ma’lumotlar, rasmiy va biznes xatlar va boshqa yozilgan matnlar tarjimasini ichiga oladi.[1]

Badiiy tarjima yozma tarjimaning asosiy turlaridan bo‘lib, u o‘ziga xos hususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi. Shubhasiz, badiiy tarjima boshqa tarjima turlaridan mutlaqo farq qiladi. Masalan, texnik matnlar tarjimasida ma’lumotlar maxsus atamalar yordamida beriladi. Aksincha, badiiy tarjimada esa, tarjimonning maqsadi manba matni mazmunini ifodali qilib, o‘quvchiga yetkazishdir.

Shu o‘rinda Sotti Husayniyning badiiy tarjima xususida bildirgan fikrlarini keltirib o‘tsak. “Badiiy tarjima sohasida shunga erishmog‘imiz kerakki, har bir yozuvchi biron bir badiiy asarni

[1] Попович, А. Проблемы художественного перевода. – М.: Высш.школа, 1980. – 199 с.

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

tarjimaga olar ekan, unga xuddi original asar yozayotganday sevib kirishsin. Badiiy tarjima-badiiy sharafli ish bo‘lib, bilim va san’atkorlik talab etadi.[2]

Asarni qanday tarjima qilish uni qanday o‘qishga to‘g‘rirog‘i uni qanday uqishga, qanday talqin etishga bog‘liq. Shuning uchun yuqoridagi uch unsur bir-biriga chambarchas bog‘liq. Matnni qanday tarjima qilish uni qanday talqin etish belgilaydi. Talqin matniy yoxud g‘ayrimatniy bo‘lishi mumkin.[3]

Badiiy matnning estetik qiymati undagi matn qanchalik darajada o‘quvchi bilan muloqotga kirishgani bilan belgilanadi. Shuningdek, badiiy matnlar badiiy adabiyotning turli janrlarini o‘z ichiga olgan bo‘ladi. Shu sababli, badiiy matn tarjimasi ijodiy yondashuvni talab qiladi. Badiiy tarjimada til tarjima uslubi va manba tili uslubi o‘rtasidagi ifoda vositasidir. Lekin, aslida til va adabiyot tili turli xil tushuncha bo‘lganligi uchun tarjima har doim asl matndan turli almashtirishlar hisobiga farq qiladi. Bunday almashturish vositalari turli transformatsiyalardan iborat bo‘lib, ularning tarjimada o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, manba va tarjima tillari uzoq tillar va mutlaqo boshqa boshqa til oilalariga mansub bo‘lsa transformatsiyalardan keng qo‘llaniladi.

Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o‘zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo‘lib qoldi. Ya’ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo‘lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o‘zaro aloqasi, o‘zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo‘lmaydi. “Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo‘lmaslik, g‘ofillik, milliy mahdudlikka olib keladi”.[4] Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog‘lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko‘prik deb qaraladi.

Tarjima va ayni badiiy tarjima haqida gapirilganda avvalo uning kelib chiqishi va bu so‘zga berilgan ta’riflarni keltirib o‘tish lozim deb bildik.

“Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi” deydi filologiya fanlari doktori, professor M. Xolbekov o‘zining “Jahon adabiyoti” jurnaliga chop etgan maqolasida. Yunon va lotin tillarini mukammal bilgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida so‘z ketidan quvish yaramaydi, ularning ma’no ifodalarini avval tarozida o‘lchab, keyin tarjima qilish ma’qul, degan fikrni bildirganlar. Keyinchalik Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima xususida o‘z nazariy tushunchalarini bildirib o‘tganlar.[5]

[2] Sotti Husayn. Tanlangan asarlar. - T.: 1974. 89-bet.

[3] G‘aybulla as-Salom , Ne’matulloh Otajon, Jahongashta “Boburnoma”, Toshkent, 1996

[4] Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent, 1978. 18-b.

[5] *M. Xolbekov “Jahon adabiyoti”, 2013–4*

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

Shu o‘rinda dunyoning ba’zi tarjimashunos, tilshunos olimlarining aynan “tarjima” so‘ziga bergan ta’riflarini keltirib o‘tsak. “Tarjima – mazmun va uslub birligini saqlagan holda asl nusxani boshqa til yordamida aniq takrorlashdir. Bunda tarjima qayta hikoya qilishdan farq qiladi, unda xorijlik asl nusxaning mazmunini yetkazish, mayda detallarni o‘tkazib yuborish va uslubni takrorlash haqida qayg‘urmaslik mumkin. Tarjimada mazmun va uslubning birligi boshqa til asosida qayta yaratiladi va shuning uchun tarjima tiliga xos bo‘lgan yangi birlik bo‘ladi” [6]

“Tarjima tillarda bajariladigan operatsiya: bu bir tildagi matnni boshqa tildagi matnga almashtirish jarayon. Shubhasiz, tarjimaning har qanday nazariyasi umumiy tilshunoslik nazariyasidir nazariyaga asoslanishi kerak.”[7]

To XX asrga qadar “tarjima” so‘zi muayyan ma’no kasb etib, faqat tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o‘girmasiga nisbatan qo‘llanilib kelingan, og‘zaki tarjimonga nisbatan esa turkiyda “tilmoch”, slavyanlarda “tolmach”, nemis tilida “dolmetschen”, ingliz va fransuz tillarida “interpret” atamalari ishlatilgan. Tarjima tarjimon so‘zidan hosil bo‘lgan, tarjimon esa forscha tarzabon so‘zidan kelib chiqqan. [8]

Tarjimon – bir tildagi og‘zaki nutq yoki yozma matnni ikkinchi tilga tarjima qiluvchi kishi, mutarjim, tilmoch, tarjimachi.

Tarjimonlik – tarjima qilish, tarjima ishi bilan shug‘ullanish. Kasb oti.

Tarjimashunos – tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis, olim.

Tarjimashunoslik – tarjima nazariyasi, tarixi va tanqidi bilan shug‘ullanuvchi fan.

Tarjima o‘tmishda hozirga ma’nosidan tashqari, bayon etish, tushuntirib berish, matnni sharhlash, tafsir, ma’noni chaqish, sodda qilib ifodalash ma’nolarini ifodalab kelgan. Chunonchi, tarjimai hol – ahvolni bayon etish. Shuning uchun hatto XX asr boshlariga qadar ham tarjima va sharh, tarjimon va shorih (sharhlovchi) tushunchalari o‘rtasida qat’iy chegara bo‘lmay, biri ikkinchisining o‘rniga qo‘llanavergan. Bunga tarjimalarning shakli va tarjimonlarning tarjima prinsiplari ham asos bergan.

Tarjima nazariyasi bo‘yicha ilmiy ish yozgan olimlar, tadqiqotchilar ishlarida tarjima so‘zi juda ko‘p ishlatiladi. Bu esa ba’zan uslub g‘alizligini tug‘diradi. G‘aybulla Salomov o‘zining “Til va tarjima”[9] nomli monografiyasida shunday deydi: “Xususan, “tarjimon... tarjima qildi, qilganda” maqomidagi jumlalarni ko‘p uchratishi kitobxonni g‘ashini keltiradi. Tarjima qilmoq so‘zining tilimizda azaldan ishlatib kelingan, ammo keyingi vaqtlarda ancha passivlashib qolgan *ag‘darmoq, o‘girmoq* kabi sinonimlarini ham qo‘llash ana shunday ko‘ngilsiz hodisaning yuz berishini oldini

[6] Рецкер Я. И. Учебное пособие по переводу с английского языка па русский Выпуск 1, Москва — 1981

[7] J. C. Catford. A Linguistic Theory of Translation. Ozford University press, 1965

[8] Komilov N. Bu qadimiy san’at//Tarjima san’ati (Maqolalar to‘plami), 3-kitob, Toshkent, 1976, 55-56 b.

[9] G‘. Salomov. Til va tarjima. Toshkent. Fan. 1966. 60 b.

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

oladi". Bizning ushbu ishimizda ham *tarjima qilmoq* fe'li ba'zi joylarda *ag'darmoq, o'girmoq* kabi sinonimlari bilan almashtirib ishlatilgan.

Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir. Chunki san'atning boshqa turlari (tasviriy san'at, musiqa, raqs) tarjimasiz ham barchaga tushunarlidir.

G'aybulla Salomovning fikricha, tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot: she'r, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqlarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi, "tilmoch"ning xizmatiga muhtoj bo'lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar o'giriladi[10]

Har qanday tarjima oldiga ikki talab qo'yiladi:

– asliyatda ifodalangan fikr tarjimada ham to'la, aniq va ta'sirchan tarzda o'z akasini topishi kerak;

– tarjima o'zi o'girilgan til me'yorlariga mos kelishi kerak.

E.A. Nayda (119, 12-bet) o'z ta'rifiga uslub tushunchasini kiritgan: "Tarjima boshqa tilda, birinchidan, mazmun elementlarining tabiiy ekvivalentini, ikkinchidan, uslub elementlarini takrorlashdan iboratdir".[11]

Shunday qilib, tarjima ikki asosiy bosqichdan tashkil topgan jarayondir. Birinchisi, tarjimon matnni semantik va lingvistik tahlilini amalga oshiradigan tushunish bosqichi bo'lsa, ikkinchisi, tarjimon manba matnini qayta ishlab chiqaradigan, mazmuni va uslubini tahlil qiladigan tilni tiklash bosqichidir. Ushbu ta'rifda ikki tildagi elementlarning o'zaro bog'liqligi masalasi nazarda tutilgan va tushunish muammosi bir xil kontekstga kiritilgan.

Tarjima shu tilda yozilgan har qanday asar bilan teng darajada idrok etilishi va baholanishi mumkin. Biroq, tarjima "ikkinchi asl" va madaniy an'ananing bir qismi bo'lish uchun yetarli darajada yaxshi bo'lmasa, nima bo'ladi, degan savol tug'iladi. Shu munosabat bilan P.Kuhivczak (117, 236-bet) shunday deydi: "...badiiy asar tarjimonining ishi ko'p jihatdan universitetdagi imtihonni eslatadi. Muvaffaqiyatsizlik degani sizga kerak, degani. Qayta urinib ko'ring. Hatto aytishingiz mumkinki, har bir muvaffaqiyatsiz tarjimada muvaffaqiyat va'dasi bor, ya'ni "ikkinchi asl nusxa" yaratish.

Hulosa qilib aytganda, tarjima nafaqat semantik, balki semiotik operatsiya bo'lib, muloqot aktidan ajralmas bo'lib, uni faol ikki tillilik va har ikkala madaniyatda yaxshi yo'nalishsiz amalga oshirish mumkin emas. Tarjimon siymosini biz manba matn madaniyati va tarjima qilinayotgan til madaniyati o'rtasida vositachi shaxs sifatida qaraymiz. Demak tarjima madaniyat, san'at va adabiyotlarning bir-biriga ta'sirini o'rganadi. Bundan tashqari, tarjima xalqlar o'rtasida do'stlik va

[10] Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish 102-b
[11] Nida E. Linguistics and Ethnology in Translation Problems. N. Y. : Word N2, 1945.

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

hamkorlik o‘rnatilishida, ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvida va ommlashishida, tillarning boyishida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish 102-b
2. Nida E. Linguistics and Ethnology in Translation Problems. N. Y. : Word N2, 1945.
3. Рецкер Я. И. Учебное пособие по переводу с английского языка па русский Выпуск 1, Москва — 1981

WORDLY
KNOWLEDGE